



**KLUBLARNI LITSENZIYALASH  
REGLAMENTI**

**UZBEKISTAN  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE**

Mazkur Reglament (bundan buyon — Reglament) O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi Ijroiya qo'mitasi Byurosining 2021-yil 14-maydagi yig'ilishida ma'qullangan. Ushbu Reglament O'zbekistonda futbol klublarini litsenziyalash shartlari va nizomlarini belgilovchi, FIFA, OFK, O'FA va O'zPFL ustavlari hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatdir.



**UZBEKISTAN**  
**PROFESSIONAL FOOTBALL**  
**LEAGUE**

<b>1-bob.</b> Muqaddima.....	6
<b>2-bob.</b> Maqsadlar.....	6
<b>3-bob.</b> Klublarni litsenziyalash mezonlari.....	6
<b>4-bob.</b> Litsenziar.....	7
<b>5-bob.</b> Litsenziyalash ma'muriyati.....	7
<b>6-bob.</b> Qaror qabul qiluvchi organlar.....	8
<b>7-bob.</b> Sanksiyalar ro'yxati.....	9
<b>8-bob.</b> Asosiy jarayon.....	10
<b>9-bob.</b> Litsenziya talabgori va ikki yillik qoida.....	11
<b>10-bob.</b> Litsenziya talabgorining majburiyatlari.....	11
<b>11-bob.</b> Litsenziya.....	12
<b>12-bob.</b> Navbatdan tashqari ariza.....	12
<b>13-bob.</b> Sport mezoni.....	13
<b>14-bob.</b> Infratuzilma mezoni.....	16
<b>15-bob.</b> Xodimlar va ma'muriyat mezoni.....	19
<b>16-bob.</b> Yuridik mezon.....	24
<b>17-bob.</b> Moliyaviy mezon.....	28
<b>18-bob.</b> OFK ayollar championlar ligasi uchun klublarni litsenziyalash mezonlari.....	34
<b>19-bob.</b> Yakuniy qoidalar .....	39

# UZBEKISTAN

## PROFESSIONAL FOOTBALL

### LEAGUE

## Atamalar va ta'riflar

<b>FIFA</b>	Xalqaro futbol federatsiyalari assotsiatsiyasi
<b>OFK</b>	Osiyo futbol konfederatsiyasi
<b>O'FA</b>	O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi
<b>O'zPFL</b>	O'zbekiston professional futbol ligasi
<b>Litsenziya</b>	Litsenziar tomonidan Litsenziya talabgoriga Klublarni Litsenziyalash mezonlarining minimal talablarini bajarganlik uchun taqdim etilgan hamda OFK va O'zPFL ligalarida ishtirok etish huquqini beruvchi sertifikat
<b>Litsenziar</b>	Klublarni litsenziyalash jarayoni bilan shug'ullanuvchi hamda ushbu Reglamentga muvofiq holda Litsenziyalarni taqdim etuvchi organ
<b>Litsenziya talabgori</b>	Litsenziyaga da'vogarlik qiluvchi futbol jamoasining milliy va xalqaro musobaqalarda qatnashishi uchun to'liq javobgar bo'lgan yuridik shaxs
<b>Litsenziat</b>	Litsenziar tomonidan Litsenziya taqdim etilgan Litsenziya talabgori
<b>Litsenziyalash ma'muriyatি</b>	Litsenziarning klublarni litsenziyada jarayonidan o'tkazish bilan shug'ullanuvchi ishchi guruh
<b>CLAS</b>	OFK tomonidan Litsenziya talabgorlari, Litsenziardan ma'lumotlarni olish va Litsenziatlar bilan tegishli klublarga Reglamentdan foydalanish, baholash va jarayonni tartibga solish maqsadida ma'lumotlarni taqdim etish uchun ishlab chiqilgan IT tizimi Ushbu Reglament bilan tasdiqlangan, Litsenziyalarni bajarishi shart bo'lgan talablar (ular beshta toifaga bo'linadi: sport, infratuzilma, xodimlar va ma'muriy, yuridik va moliyaviy)
<b>Klublarni litsenziyalash mezonlari</b>	Litsenziya olish uchun Litsenziarga o'rnatalgan tartibda umumiyligida va moliyaviy hisobot topshiruvchi tashkilot
<b>Hisobot beruvchi tashkilot</b>	Muayyan yakuniy sanaga tuzilgan moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami, u odatda kirim-chiqim, daromad va kamomad hisobi, naqd pul oqimlari va qimmatli qog'ozlarning hisoboti,
<b>Yillik moliyaviy hisobotlar</b>	

boshqa hisobotlar va moliyaviy hisobotlarning ajralmas qismi hisoblangan tushuntirishlarni o'z ichiga oladi

**Audit**

Taqdim etilaидган молиавий хисобларнинг барча жиҳатлар бо'yича белгилangan шакlda таъyorланishiga erishish uchun tashkilot moliyaviy va xo'jalik faoliyatini auditorlik tashkilot tomonidan tekshiruvdan o'tkazilishi

Hisobot beruvchi tashkilotning yillik buxgalteriya ma'lumotlarini taqdim etish sanasi

Hisobot beruvchi tashkilotning moliyaviy hisobotlariga ta'siri bo'ladigan, oldingi moliyaviy yil yakunlangach yoki oraliq davrda sodir bo'ladigan yuqori iqtisodiy ahamiyatga ega hodisa yoki holat

Ma'lumot taqdim etishning muayyan yakuniy sanada tugaydigan moliyaviy davri. U kalendar yiliga to'g'ri kelishi ham kelmasligi ham mumkin va oraliq davr, deb hisoblanmaydi

Tashkilot bilan bog'liq kelgusi hodisalar va ehtimoliy voqealarning kelgusidagi moliyaviy ta'siri to'g'risidagi axborot

Oraliq davrdagi moliyaviy hisobotlarning to'plamidan iborat bo'lgan moliyaviy axborot

Litseniyalash qaroridan so'ng sodir bo'lgan voqeal yoki hodisalar

**Muayyan yakuniy sana**

**Yuqori Iqtisodiy  
ahamiyatga ega hodisa**

**Moliyaviy yil**

**Kelgusi moliyaviy axborot**

**Oraliq moliyaviy  
hisobotlar**

**Keyingi hodisalar**

**UZBEKISTAN  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE**

## **1-bob. Muqaddima**

**1.1.** Mazkur Reglament Osiyo futbol konfederatsiyasining Klublarni litsenziyalash qoidalari majmuyi asosida ishlab chiqilgan.

**1.2.** Reglament O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi va O'zbekiston Professional futbol ligasi bayrog'i ostida o'tkaziladigan musobaqalarda ishtirok etuvchi professional futbol klublari ishtirokidagi litsenziyalash jarayonini tartibga soladi hamda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- litsenziya talabgori tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan minimal talablarni hamda asosiy jarayon davomida baholanishi lozim bo'lgan minimal mezonlarni;
- litsenziya talabgoriga O'zPFL va OFK klublar musobaqalarida ishtirok etish uchun litsenziya berishni yoki bermaslikni;
- O'zPFL va OFK klublar musobaqalarida qatnashish maqsadida litsenziya olish uchun minimal darajadagi sport, infratuzilma, xodimlar va klub ma'muriyatiga oid, yuridik va moliyaviy mezonlarni.

## **2-bob. Maqsadlar**

**2.1.** Klublarni litsenziyalash tizimi doimiy rivojlanib borishni ta'minlash uchun yaratilgan asosdir.

**2.2.** Ushbu Reglament quyidagi maqsadlarga erish uchun qaratilgan:

- O'zPFL va OFK klublari musobaqalari obro'si hamda yaxlitligini himoya qilish uchun;
- futbol klublarining sport, infratuzilma, xodimlar va ma'muriy, yuridik hamda moliyaviy mezonlar bo'yicha rivojlanishiini ta'minlash;
- O'zbekiston futboli standartlarini doimiy ravishda takomillashtirish hamda har bir futbol klubida yosh o'yinchilarni tayyorlash va o'qitishni ustuvor vazifa qilib belgilash;
- futbol klublarida boshqaruv va ishni tashkil etish darajasini oshirish;
- futbol klublarining iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini oshirish, ularning faoliyatida shaffoflikni ta'minlash, klublar obro'sini mustahkamlash, kreditorlar manfaatlarini himoya qilish kabi masalalarga e'tibor berish va klublarning o'z xodimlari, ijtimoiy/soliq tashkilotlari va boshqa klublar oldidagi qarzdorliklarini to'liq baratarf etishlarini ta'minlash;
- futbol klublarining sport infratuzilmasini (ayniqsa stadionlarni) muxlislar va OAV xodimlarining tashrif buyurishi uchun qulay, xavfsiz hamda zamonaviy qilib jihozlash, moslashtirish.

## **3-bob. Klublarni litsenziyalash mezonlari**

**3.1.** O'zPFL va OFK musobaqalarida ishtirok etish uchun klublar har kelgusi futbol mavsumi oldidan litsenziyalash jarayonidan o'tishlari kerak.

**3.2.** Ushbu Reglamentda ko'rsatilgan bandlar 3 (uch) mezon asosida tartibga solinadi. Ushbu mezonlar OFK va FIFAning klublarni litsenziyalash qoidalariga to'la mos keladi va "A", "B" hamda "C" toifalarga bo'linadi:

- **A – MAJBURIY GRADATSIYA**

Litsenziya talabgori tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan mezon. Agar Litsenziya talabgori A gradatsiya etib belgilangan mezonlaridan birortasini bajara olmasa, unga O'zPFL yoki OFK klublar miqiyosidagi musobaqalarida qatnashish uchun Litsenziya taqdim etilmaydi.

- **B – MAJBURIY GRADATSIYA**

Agar Litsenziya talabgori B gradatsiya etib belgilangan mezonlaridan birortasini bajara olmasa, ushbu mezonni bajarmaganlik uchun Litsenziyar tomonidan belgilangan tartibda sanksiyaga tortiladi, lekin Litsenziya talabgori O'zPFL yoki OFK klublar miqiyosidagi musobaqalarida qatnashish uchun Litsenziyaga ega bo'lishi mumkin.

- **C – TAJRIBA GRADATSIYASI**

Litsenziya talabgori tomonidan bajarilishi majburiy bo'lmagan, lekin bajarish tavsiya etiladigan gradatsiyaga ega mezonlar.

**3.3.** Klublarni litsenziyalash jarayoni boshlanadigan sana to'g'risida O'zPFLning Klublarni litsenziyalash bo'limi futbol klublariga rasmiy xat orqali xabar beradi.

#### **4-bob. Litsenziar**

**4.1.** O'FA OFK a'zosi sifatida Litsenziar hisoblanadi va klublarni litsenziyalash tizimini nazorat qiladi. O'FA, shuningdek, litsenziyalash bo'yicha ma'muriy va boshqaruv organlarini tayinlaydi.

**4.2.** Litsenziar klublarni litsenziyalash jarayonini muvofiqlashtirishda OFKning talabiga asosan AFC CLAS tizimidan foydalanadi.

**4.3.** Litsenziar jarayonni tartibga solish uchun quyidagilarni amalga oshiradi:

- O'zPFL qoshida Litsenziyalash Ma'muriyatini shakllantiradi;
- kamida 2 ta qaror qabul qilish organlarini shakllantiradi;
- sanksiyalar ro'yxatini shakllantiradi;

**4.4.** Litsenziar litsenziyalash jarayonida litsenziya talabgori tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi moliyaviy ma'lumotlar maxfiy saqlanishiga kafolat beradi.

#### **5-bob. Litsenziyalash ma'muriyati**

**5.1.** O'zPFLning Klublarni litsenziyalash bo'limi litsenziyalash tizimidagi ishchi organ hisoblanadi. Klublarni litsenziyalash bo'limi boshlig'i Litsenziyalash menejeri sifatida O'FA va OFKning tegishli organlariga hisobot beradi.

**5.2.** O'zPFLning Klublarni litsenziyalash bo'limi vakillari amaldagi mezonlarni ko'rib chiqishi, reglamentga tegishli tuzatishlar bo'yicha taklif taqdim etishi yoki O'FA Ijroiya qo'mitasiga qayta ko'rib chiqish taklifini berish huquqiga ega.

**5.3.** Litsenziyalash ma'muriyatining vazifalari quyidagilardan iborat:

- klublarni litsenziyalash tizimini ishlab chiqish, joriy etish va rivojlantirish;
- Litsenziya talabgorlarining CLAS tizimidan foydalanishlarida amaliy ko'mak ko'rsatish;
- Qaror qabul qilish organlarini ma'muriy qo'llab-quvvatlash va ularni so'ralsan ma'lumotlar bilan ta'minlash;
- Litsenziatlarga Litsenziya mavsumi davomida yordam berish, ko'maklashish va nazorat qilish;
- OFKnii Litsenziar tomonidan oldindan taqdim etilgan, ma'lumotlardagi sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'luvchi, litsenziyalash qaroridan keyin sodir bo'lgan har qanday hodisalar yuzasidan xabardor etish;
- OFK va unga a'zo davlatlarning litsenziyalash bo'limlari bilan tajriba almashish maqsadida hamkorlik aloqalarini o'rnatish.

**5.4.** Litsenziyalash Ma'muriyi tarkibida moliyaviy bilim va tegishli organlar tomonidan tan olinadigan buxgalteriya/audit bo'yicha diplomga ega kamida bitta xodim yoki tashqi moliyaviy maslahatchi yoki yuqoridagi masalalar bo'yicha bir necha yillik tajribaga ega xodim faoliyat olib borishi lozim.

### **6-bob. Qaror qabul qiluvchi organlar**

**6.1.** O'FA Ijroiya qo'mitasi tomonidan tuziladigan Litsenziyalash qo'mitasi va Litsenziyalash bo'yicha appelyatsiya qo'mitasi Qaror qabul qiluvchi organlar hisoblanadi. Ushbu organlar o'zaro bir-biridan mustaqil tarzda ish olib boradi.

**6.2.** Litsenziyalash qo'mitasi Litsenziar tomonidan belgilangan muddatda ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarga asoslangan holda Litsenziya berish yoki bermaslikni va Litsenziyalash menejerining taqdimnomasi asosida Litsenziyani bekor qilish yoki qilmaslikni hal qiladi.

**6.3.** Litsenziyalash bo'yicha appelyatsiya qo'mitasi shikoyatlar bo'yicha qarorlar qabul qiladi hamda Litsenziya berish yoki bermaslikni hal qiladi.

**6.4.** Shikoyatlar faqat quyidagilar holatlardagina berilishi mumkin:

a) Litsenziya talabgori Litsenziyalash qo'mitasidan rad javobini olsa va bundan qoniqmasa;

b) Litsenziyatning Litsenziyasi Litsenziyalash qo'mitasi tomonidan bekor qilinsa; yoki

c) ayrim hollarda Litsenziar/Litsenziyalash menejerining murojaati asosida.

**6.5.** Litsenziyalash bo'yicha appelyatsiya qo'mitasini o'z qarorini faqat Litsenziyalash qo'mitasining qarori asosida hamda Litsenziya talabgori yoki Litsenziarning Litsenziyalash qo'mitasiga taqdim etgan dalillari/hujjatlari asosidagina chiqarishi mumkin. Bunda shikoyat arizasi oldindan belgilangan muddatgacha taqdim etilishi zarur.

**6.6.** Qaror qabul qiluvchi organlarning a'zolari O'FA ustaviga muvofiq O'FA Ijroiya qo'mitasi tomonidan saylanishi yoki tayinlanishi mumkin va ular quyidagi majburiyatlarga ega:

a) Litsenziya talabgori va Qaror qabul qiluvchi organlar a'zolari orasida manfaatli bog'liqlik (masalan, qarindoshchilik, hamkorlik) bo'lsa, Qaror qabul qiluvchi organning o'sha a'zosi aynan shu litsenziya talabgoriga nisbatan o'tkazilayotgan ovoz berish jarayonida ishtirok etishdan tiyilishi kerak;

b) bir vaqtning o'zida Litsenziyalash menejeri sifatida ish olib bormasligi kerak;

c) bir vaqtning o'zida O'FA yoki O'zPFL ijro organiga tegishli bo'lmasligi kerak;

d) futbol klubining boshqaruv ma'muriyatiga tegishli bo'lmasligi kerak;

**6.7.** O'FA Ijroiya qo'mitasi byurosi Qaror qabul qiluvchi organlar a'zolarini 2 yil muddatga tayinlaydi yoki saylaydi. A'zolar birinchi muddat yakuniga yetgach, qaytadan yana 2 yilga tayinlanishi yoki saylanishi mumkin.

**6.8.** Qaror qabul qiluvchi organlarning tarkibi kamida uch (3) nafar a'zodan iborat bo'lishi kerak. Ovozlar teng kelgan holatda raisning ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

**6.9.** Qaror qabul qiluvchi organlar tarkibida kamida 1(bir) nafardan malakali yurist va diplomga ega hisobchi bo'lishi kerak.

**6.10.** Qaror qabul qiluvchi organlaradolat tamoyillari asosida faoliyat olib borishi hamda quyidagi standartlarni tartibga solishi lozim:

a) muddatlar (masalan, hujjatlarni topshirish muddatlari, shikoyatlar uchun muddatlar va hokazo)ni belgilash;

b) barchaga bir xil munosabatda bo'lish tamoyillariga riosa qilish;

c) Litsenziya talabgoridan so'raladigan dalil va hujjatlarning tartibini belgilash;

d) Litsenziya berish yoki rad etish bo'yicha qarorlar yuzasidan sabablar ko'rsatilgan holda yozma izoh berish.

## **7-bob. Sanksiyalar ro'yxati**

**7.1.** Litsenziya uchun da'vogar bo'lgan futbol klublari hamda Litsenziya olgan klublar tomonidan mazkur Reglamentga amal qilinmagan taqdirda Litsenziyalash qo'mitasi futbol klubiga nisbatan turli darajada sanksiyalar qo'llashi mumkin.

**7.2.** Agar Litsenziya talabgori hujjatlarini taqdim etishda belgilangan muddatlarga amal qilmasa, mazkur Reglamentda belgilangan talablarga javob bermasa, Litsenziya talabgori tomonidan litsenziyalash jarayonida yolg'on ma'lumot taqdim etilsa, O'zPFLning Klublarni litsenziyalash bo'limi tomonidan Litsenziya berish masalasi bo'yicha beriladigan topshiriqlar Litsenziya talabgori/Litsenziyat tarafidan o'rnatilgan tartibda amalga oshirilmasa quyidagi sanksiyalar kuchga kirishi mumkin:

- ogohlantirish;
- kamchiliklarni bartaraf etish uchun shartli muddat belgilash;
- pul jarimasi;
- qo'shimcha hujjat taqdim etish majburiyati;
- qo'shimcha talablarni bajarish majburiyati;
- yangi o'yinchilarni ro'yxatdan o'tkazishga taqiq;
- legioner futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazishga taqiq;
- o'z maydonida o'yinlar o'tkaza olmaslik;
- uy uchrashuvini muxlislarsiz o'tkazish;
- texnik mag'lubiyat berish;
- ochkolardan mahrum qilish;
- quyi ligaga tushirib yuborish.

**7.3.** Sanksiyalar yuzasidan Litsenziya talabgori yoki Litsenziyat Litsenziyalash bo'yicha appelyatsiya qo'mitasiga shikoyat qilishi mumkin.

**7.4.** Litsenziyalash bo'yicha appelyatsiya qo'mitasining Litsenziya talabgori yoki Litsenziya egasiga nisbatan chiqargan hukmi yakuniy hisoblanadi va qayta e'tirozga o'ren qoldirmaydi.

## **8-bob. Asosiy jarayon**

**8.1.** Asosiy jarayon ushbu Reglamentda keltirilgan va Litsenziya talabgoriga Litsenziya berish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan, Litsenziar tomonidan nazorat qilinishi kerak bo'lgan minimal talablar ro'yxatini tekshirishni o'z ichiga oladi.

**8.2.** Litsenziar asosiy jarayonni olib borish paytida barcha Litsenziya talabgorlari va Litsenziatlarga bir xil munosabatda bo'lishi shart.

**8.3.** Litsenziyalash jarayoni avvalida Litsenziyalash ma'muriyati klublarga asosiy jarayon dasturi, jadvali va muddatlari haqida ma'lumot yuboradi.

**8.4.** Asosiy jarayon Litsenziar tomonidan belgilangan vaqtida boshlanadi va Litsenziyalash qo'mitasi qarori OFKga taqdim etilgan vaqtida yakunlanadi.

**8.5.** Litsenziyalashning asosiy jarayoni dasturi quyidagi ketma-ketlikdan iborat bo'ladi:

- litsenziyalash hujjatlari to'plamini Litsenziya talabgorilarga tarqatish;

- Litsenziya talabgori tomonidan litsenziyalash mezonlariga javob berishini isbotlash uchun hujjatlarni Litsenziarga topshirilishi;
- Hujjatlarning Litsenziyalash Ma'muriyati tomonidan baholanishi (tashrif, suhbat, o'rganish va hokazolar);
- Hujjatlarning Qaror qabul qiluvchi organlar tomonidan baholanishi va qaror qabul qilinishi;
- Litsenziyalash Qarorlari natijalarini e'lon qilish va bu haqda OFKga ma'lumot berish.

### **9-bob. Litsenziya talabgori va ikki yillik qoida**

**9.1.** Faqatgina futbol klubi yoki ayrim hollarda milliy va xalqaro musobaqalarda ishtirok etayotgan futbol jamoasi uchun to'liq javobgar bo'lgan yuridik shaxs Litsenziya talabgori bo'la oladi, bunda:

- a) u O'FA yoki O'zPFLning ro'yxatdan o'tgan a'zosi yoki qatnashchisi bo'lishi va O'zPFL musobaqalarida ishtirok etishi lozim; yoxud
- b) u O'FA yoki O'zPFLning ro'yxatdan o'tgan a'zosi yoki qatnashchisi bilan shartnomaviy munosabatlarga ega futbol kompaniyasi bo'lishi lozim.

**9.2.** Litsenziya talabgorining O'FA yoki O'zPFLda ro'yxatdan o'tgan a'zolik yoki qatnashchilik muddati Litsenziyalash jarayoni boshlanayotgan paytda eng kamida uzlusiz ikki yil davom etgan bo'lishi shart.

**9.3.** Asosiy jarayon mobaynida musobaqa yaxlitligiga daxl qilish yoki Litsenziya talabgorining biror musobaqaga sport tamoyillari asosida yo'l olishini osonlashtirish maqsadida Litsenziya olish uchun Litsenziya talabgorining tashkiliy-huquqiy shakli, tuzilmasi (boshqa tashkilot bilan birlashishi yoki futbol faoliyatining boshqa tashkilotga o'tkazilishi) yoki ramzları (shu jumladan qarorgohi, nomi va ranglari) ning o'zgartirilishi – a'zolik yoki shartnomaviy munosabatlarning buzilishi hisoblanadi.

**9.4.** Litsenziya talabgori nomidan Klubning litsenziyalash bo'yicha menejeri Litsenziyalash ma'muriyati bilan munosabatlarga kirishadi. Asosiy jarayon boshlanishi oldidan Litsenziya talabgorining bosh direktori, Klubning litsenziyalash bo'yicha menejeri va buxgalteri Litsenziarga noto'g'ri ma'lumot bermaslik, barcha zarur hujjat va dalillarni o'z vaqtida hamda kerakli shaklda taqdim etish bo'yicha Deklaratsiya imzolab topshiradi.

### **10-bob. Litsenziya talabgorining majburiyatları**

**10.1.** Litsenziya talabgori Litsenziarni quyidagilar bilan ta'minlashi zarur:

- Litsenziyalash majburiyatlarining to'liq bajarilganini tasdiqlovchi barcha zarur ma'lumotlar va tegishli hujjatlar; va

- Litsenziar tomonidan Litsenziya bo'yicha qaror qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa har qanday hujjatlar.

**10.2.** Litsenziya talabgori tomonidan Litsenziarga taqdim etiladigan hujjatlar sport, infratuzilma, xodimlar va ma'muriy, yuridik hamda moliyaviy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

**10.3.** Litsenziyalash hujjatlari Litsenziarga taqdim etilgandan keyin jiddiy o'zgarishga sabab bo'luvchi har qanday hodisa yuz bersa, ayniqsa Litsenziya talabgorining tashkiliy-huquqiy shakli yoki tuzilmasi o'zgarsa va oldinroq Litsenziarga taqdim etilgan ma'lumotlardan sezilarli farq qilsa, o'zgarish bo'lgani yuzasidan zudlik bilan Litsenziarga xabar berilishi zarur.

### **11-bob. Litsenziya**

**11.1.** Litsenziar Litsenziya talabgoriga Litsenziya taqdim etganidan so'ng, talabgor litsenziya egasiga – Litsenziyatga aylanadi.

**11.2.** OFK va O'zPFL musobaqalarida (yarim professional futbol klublari bundan mustasno) ishtirok etish uchun futbol klubi sport tamoyillari bo'yicha yo'llanmani qo'lga kiritishi bilan bir qatorda ushbu Reglament asosida Litsenziya ham olishi zarur.

**11.3.** Litsenziya faqatgina taqdim etilgan mavsumining yakuniga qadar amal qiladi.

**11.4.** Litsenziyani boshqa shaxsga berish mumkin emas.

**11.5.** Litsenziya quyidagi hollarda OFK yoki O'FAning Qaror qabul qiluvchi organlari tomonidan bekor qilinishi mumkin:

a) Litsenziya berilishi uchun talab etilgan shartlarning birortasi bajarilmasa; yoki

b) Litsenziyat ushbu Reglamentda belgilangan majburiyatlarning birortasini buzsa.

**11.6.** Agar Litsenziar OFK musobaqasida qatnashadigan futbol klubi Litsenziyasini bekor qilsa, zudlik bilan bu haqda OFKnii xabardor qiladi. Klubni OFK musobaqasidan chetlatish haqidagi har qanday qaror esa OFKning tegishli huquqiy organlari tomonidan qabul qilinadi.

### **12-bob. Navbatdan tashqari ariza**

**12.1.** Agar futbol klubi sport tamoyillari asosida OFK klublar musobaqasiga yo'l olsa, lekin litsenziyalash jarayonidan umuman o'tmagan bo'lsa yoki o'sha musobaqada qatnashish imkonini beruvchi Litsenziyadan darjasи pastroq Litsenziyaga ega bo'lsa, Litsenziar ushbu klub nomidan OFK klublarni litsenziyalash qoidalari 4-ilovasiga muvofiq OFKga navbatdan tashqari ariza berishi mumkin.

**12.2.** Navbatdan tashqari arizaga asosan klubga OFK tegishli musobaqada ishtirok etishga shartli ravishda ruxsat berishi mumkin. Bunday navbatdan tashqari ariza faqatgina ushbu bandga mos keladigan klub va tegishli mavsum uchun amal qiladi. Bu boradagi yakuniy qaror OFKning tegishli huquqiy organlari tomonidan qabul qilinadi.

### **13-bob. Sport mezoni**

S.01	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Yoshlar futbolini rivojlantirish dasturi</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori Litsenziar tomonidan tasdiqlangan yozma shakldagi yoshlar futbolini rivojlantirish bo'yicha dasturga ega bo'lishi lozim. Litsenziar uni mavjud normativ hujjat asosida baholaydi va tasdiqlaydi, shuningdek davriy ravishda mashg'ulotlar hamda o'ynlarga tashriflar orqali dasturning amaliyotga tatbiqini nazorat qiladi.

**2.** Dastur eng kamida quyidagi sohalarni qamrab olishi zarur:

- a) Maqsadlar, yoshlarning o'yin falsafasi va yoshlarni rivojlantirish falsafasi;
- b) Yoshlar sektorining tashkil etilishi (tarkibiy tuzilmasi, aloqador bo'lim va bo'linmalar, yoshlar jamoalari va hokazo);
- c) Xodimlar (texnik, tibbiy, ma'muriy, va hokazo) uchun talab qilinadigan minimal mutaxassislik talablari;
- d) Yoshlar sektori uchun ajratilgan infrastruktura obyektlari (mashg'ulot va o'ynilar o'tkaziladigan obyektlar va hokazo);
- e) Moliyaviy manbaalar (Byudjet, Litsenziya talabgori, o'yinchilar va mahalliy ma'muriyat tomonidan ajratiladigan ko'mak va hokazo);
- f) Turli yosh toifalari guruhlari uchun futbol ta'limi dasturi (psixologik, texnik, taktik va jismoniy);
- g) Ta'lim dasturlari (o'yin qoidalari, anti-doping, kelishilgan o'ynlarga qarshi kurash, irqchilikka qarshilik);
- h) Yosh o'yinchilarni tibbiy qarovi (tibbiy tekshiruvlarni qamrab olgan holda);
- i) Yoshlarning individual namoyishlarini baholanishi;
- j) Erishilgan yutuq va natijalarni baholash jarayoni;
- k) Dasturning amal qilish muddati (kamida uch yildan – ko'pi bilan yetti (7) yilgacha).

**3.** Litsenziya talabgori quyidagilarni ta'minlashi shart:

- a) Yoshlar futbolini rivojlantirish dasturiga aloqador har bir yosh o'yinchining milliy qonunchilik bilan belgilab qo'yilgan majburiy umumiy maktab ta'limi olishi;

b) Yoshlar futbolini rivojlantirish dasturiga aloqador hech bir yosh o'yinchi futboldan tashqari ta'limni to'xtatib qo'yish uchun majburlanmasligi.

S.02 <b>Yoshlar jamoalari</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori o'z tuzilmasida yoki bir yuridik doiradagi boshqa tashkilotda eng kamida quyidagi yosh toifasidagi jamoalarga ega bo'lishi zarur:

- a) 15 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan oraliqda kamida ikkita yoshlar jamoalari;
- b) 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan oraliqda kamida bitta yoshlar jamoasi;
- c) kamida bitta 10 yoshdan kichik toifadagi jamoa;
- d) 10 yoshdan kichik toifadagi jamoadan tashqari qolgan barcha yoshlar jamoalari O'zPFL tomonidan o'tkaziladigan milliy miqiyosdagi rasmiy musobaqalarda ishtirok etishi shart.

S.03 <b>O'yinchilarning tibbiy tekshiruvi</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori ro'yxatdan o'tgan barcha o'yinchilarning tibbiy xizmat bilan ta'minlanishini kafolatlashi lozim.

Bu o'z ichiga kamida quyidagi shartlarni qamrab oladi:

- a) Asosiy tarkibning har bir o'yinchisi uchun yurak qon-tomir skriningini qamrab olgan har yilgi tibbiy tekshiruv;
- b) 12 yoshdan yuqori barcha o'yinchilar uchun yillik tibbiy tekshiruv;
- c) shartnomasi mavjud barcha o'yinchilar uchun tubbiy sug'urta ta'minoti.

S.04 <b>Ta'lim dasturlari</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori kamida asosiy tarkibining barcha o'yinchilari va murabbiylar shtabi vakillarining quyidagi mavzularga bag'ishlangan seminar, yig'ilish, tadbir yoki taqdimotlarda qatnashishini ta'minlashi zarur:

- a) Sport yaxlitligi, kelishilgan o'yinlarga qarshi kurashish masalalari;
- b) FIFA O'yin qoidalari;
- c) doping nazorati;
- d) OFK, O'FA hamda O'zPFL tomonidan taqdim etiladigan boshqa mavzular.

**2.** Bunday tadbir yoki taqdimotlar Litsenziya talabgori, O'FA yoki O'zPFL tomonidan, shuningdek ayrim holatlarda uchinchini tomon bilan o'zaro hamkorlikda Litsenziya taqdim etiladigan mavsumdan oldingi yil davomida o'tkazilishi lozim.

S.05	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazish</b>	<b>B</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgorining 10 yoshdan yuqori bo'lgan barcha futbolchilari FIFAning Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha reglamenti qoidalariga muvofiq O'zPFLda ro'yxatdan o'tkazilishi shart.

S.06	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Irqiylenglik amaliyoti</b>	<b>B</b>	<b>B</b>

**1.** Litsenziya talabgori futbolda irqchilikka yo'l qo'ymaslik bo'yicha qoidalar tartibidan iborat ichki me'yoriy hujjat ishlab chiqishi va Litsenziya talabgorining barcha o'yinchilari va xodimlari ushbu hujjatlarni imzolash orqali mazkur qoidalar bilan tanishib chiqqanini tasdiqlashi zarur.

S.07	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Ommaviy dasturlar</b>	<b>B</b>	<b>B</b>

**1.** Ommaviy tadbirlar asosan bolalar, xavaskorlar, keksalar va faxriylar, shuningdek aqlan va jismonan cheklangan imkoniyatga ega kishilar uchun tashkil etilishi lozim.

**2.** Litsenziya talabgorining ommaviy futbol dasturlari asosiy maqsadi – jamiyatning turli qatlamlari o'rtaida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularning futbolga bo'lgan qiziqishini orttirish, ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

S.08	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Bolalar himoyasi va ijtimoiy muhofaza</b>	<b>C</b>	<b>C</b>

**1.** Litsenziya talabgori tegishli normativ hujjatlar va qo'llanmalarga asosan bolalarni tashkil etiladigan tadbirlarda ishtirok etish jarayonida o'zlarini yaxshi his etishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlashi, ularni ehtimolliy haqoratlardan, tajovuz va zo'ravonlikdan himoya qilishi zarur. Litsenziya talabgori bolalarni himoya qilish bo'yicha normativ hujjat ega bo'lishi, mahalliy bolalarni himoya qilish muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi va o'z ma'muriyatida bunday tadbirlarni amalga oshirish uchun mas'ul xodimga ega bo'lishi zarur.

S.09 <b>Ayollar jamoasi</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	C	B

**1.** Litsenziya talabgori o'z tuzilmasida kamida bitta ayollar jamoasiga ega bo'lishi lozim.

**2.** Ayollar jamoasi O'zPFL tomonidan o'tkaziladigan rasmiy musobaqalarda ishtirok etishi shart.

S.10 <b>Jamoatchilik bilan ishslash bo'yicha dasturlar</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	C	B

**1.** Litsenziya talabgori klub brendi hamda futbol targ'ibotiga oid turli loyiha hamda tashabbuslarni amalga oshirishi, bu orqali jamoatchilikka yanada yaqinlashib borishi lozim.

**2.** Bu borada FIFA, OFK, O'FA hamda O'zPFL tomonidan ilgari suriladigan jamoatchilik bilan ishslashga doir loyihalar ham qo'llab-quvvatlanishi maqsadga muvofiqdir.

**3.** Bunday dasturlar futbol klubini jamoatchilik bilan yanada yaqinlashtiradi va quyidagi jarayonlarni amalga oshirishga imkon beradi:

- a) Ishqibozlar sonini ko'paytirish, fan-klub tashkil etish va uni kengaytirish;
- b) Ko'ngilli volontyorlar guruhini tashkil etish;
- c) Jamoatchilik bilan aloqalarni yanada yaxshilash;
- d) Breeding, merchendayzing, homiyalar va tijoriy hamkorlar bilan ishslash uchun zarur shart-sharoitni yaratish

S.11 <b>Klub akademiyasi</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	C	B

**1.** Litsenziya talabgori OFKning Elit yoshlar tuzilmalari bo'yicha Reglamentida ko'rsatilgan infratuzilma va shart-sharoitlarga ega bo'lgan yoshlar akademiyasiga ega bo'lishi zarur.

#### **14-bob. Infratuzilma mezoni**

I.01 <b>Musobaqalarni o'tkazish uchun tasdiqlangan stadion</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	A	A

**1.** Litsenziya talabgori O'zPFL hamda OFK musobaqalari doirasidagi uy uchrashuvlarini o'tkazish uchun stadionga ega bo'lishi zarur. Litsenziya talabgori:

a) o'z stadioniga ega bo'lishi lozim; yoki  
 b) stadion egasi bilan undan foydalanish bo'yicha shartnomaga ega bo'lishlari zarur. Ushbu shartnoma kelgusi mavsumda ham Litsenziya talabgorining stadiondan foydalanishini kafolatlashi zarur.

**2.** Stadion quyidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarga javob berishi lozim:

- a) Stadionlar to'g'risidagi Nizom;
- b) Musobaqalar Regamenti.

**3.** Stadion mavsum oldidan O'zPFL tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanishi va Litsenziya talabgori sharafini himoya qiluvchi shaharda joylashgan bo'lishi lozim.

I.02	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Stadionning xavfsizlik sertifikati</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Stadion futbol uchrashuvlarini qabul qilishi uchun xavfsizlik sertifikatiga ega bo'lishi zarur. Sertifikat Stadionlar to'g'risidagi Nizomda belgilangan talablar bajarilganidan so'ng, O'zPFL tomonidan beriladi.

**2.** Xavfsizlik sertifikati quyidagilar asosida taqdim etiladi va undan ushbu ma'lumotlar o'rinn oladi:

- a) umumiy tuzilishi va binolar mustahkamligi bo'yicha stadionning toifasi;
- b) xavfsizlik talablariga javob berishi bo'yicha tegishli organlar tomonidan tasdiqlangan akt;
- c) stadion sig'imi bo'yicha batapsil ma'lumotnoma;
- d) milliy qonunchilikka asosan favqulodda vaziyatlar ro'y berganida stadionni tark etish uchun tasdiqlangan evakuatsiya rejasi;
- e) har bir qavatdan ehtimoliy chiqish yo'nalishlari ko'rsatilgan rangli diagramma;
- f) futbol uchrashuvini tashkil etish bo'yicha tasdiqlangan xavfsizlik rejasi. Undan o'yin davomida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha to'liq tashkiliy tadbirlar, jumladan, chipta sotish tartibi, stadionda tibbiy yordam ko'rsatish, yong'in chiqqanida yoki elektr ta'minotidagi uzilishlar ro'y berganida, shuningdek boshqa favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganida qo'llaniladigan barcha chora-tadbirlar o'rini olishi lozim.

**3.** O'zPFL tomonidan taqdim etiadilgan Stadionning xavfsizlik sertifikati bir (1) yil, ayrim hollarda ikki (2) yil muddat davomida amal qiladi.

I.03	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Stadionning tasdiqlangan evakuatsiya rejasi</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Stadion tegishli organlar tomonidan milliy qonunlarga muvofiq tarzda tasdiqlangan favqulodda vaziyatlar vaqtida stadionni to'liq tark etish imkonini beradigan evakuatsiya rejasiga ega bo'lishi shart.

**2.** Stadionni tark etish bo'yicha barcha evakuatsiya yo'nalishlari to'liq aks etgan rangli diagramma stadionning ko'zga tez tashlanadigan nuqtalariga o'rnatilgan bo'lishi lozim.

**3.** Ayni stadionga xarakterli ehtimoliy baxtsiz xodisalar tahlili amalga oshirlishi lozim.

**4.** Klubning xavfsizlik ofitseri, styuardlar, klub va stadion xodimlarining barchasi evakuatsiya rejasi bilan to'liq tanishtishtirilgan bo'lishi zarur.

I.04	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>O'quv-mashg'ulot qarorgohining mavjudligi</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori yil davomida o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazishi mumkin bo'lgan qarorgohga ega bo'lishi zarur. Litsenziya talabgori:

- a) o'z tasarrufida o'quv-mashg'ulot qarorgohiga ega bo'lishi kerak; yoki
- b) o'quv-mashg'ulot qarorgohi egasi bilan undan yil davomida foydalanish bo'yicha shartnomaga ega bo'lishi kerak.

**2.** Litsenziya talabgorining barcha yosh toifasidagi jamoalari o'quv-mashg'ulot qarorgohidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

I.05	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Yoshlar jamoalari uchun o'quv-mashg'ulot obyektlari</b>	<b>B</b>	<b>A</b>

**1.** Futbolchi tarbiyalash dasturini amalga oshirish maqsadida Litsenziya talabgorining yoshlar tarkiblari mashg'ulot olib borishi uchun eng kamida quyidagi shart-sharoitga ega o'quv-mashg'ulot obyektlari bo'lishi zarur:

- a) tashqi mashg'ulot maydonlari;
- b) yopiq inshootdagi mashg'ulot o'tash zallari;
- c) kiyinish xonalari;
- d) tibbiyot xonasi.

I.06	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Stadionda o'zini tutish qoidalari</b>	<b>B</b>	<b>A</b>

**1.** Har bir stadionda muxlislar uchun o'zini tutish qoidalari ishlab chiqilgan bo'lishi va bu qoidalari qisqacha tarzda stadionning ko'zga tez tashlanadigan joylarida, stadion kassasida o'rnatiladigan peshlavhalarga yozilgan bo'lishi lozim. Ushbu qoidalalar eng kamida quyidagilarni qamrab olishi zarur:

- a) stadionga kirish tartibi;
- b) stadionda taqiqlangan xatti-harakatlar tavsifi (maydonga chiqib ketmaslik, maydonga buyumlar uloqtirmaslik, qo'pol yoki haqoratlovchi so'zlardan tiyilish, irqiy kamsituvchi so'zlarni aytmaslik va hokazolar);
- c) stadionda chekish, spirtli ichimliklar ichish, mushak otish, siyosiy bannerlar ko'tarish va hokazolarga kiritilgan taqiqlar mavjudligi.

### **15-bob. Xodimlar va ma'muriyat mezoni**

P.01	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Klub kotibiysi</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

1. Litsenziya talabgori ma'muriy faoliyatni amalga oshirish uchun o'z idorasiga ega bo'lishi zarur.
2. Klub kotibiyatida zarur ko'nikmaga ega xodimlar faoliyat olib borishi va ularning eng kamida bir nafari o'zbek va ingliz tillarida so'zlasha olishi hamda klubning elektron pochtasini yuritishi lozim.
3. Klub kotibiysi ish olib boradigan idora zarur infratuzilma, jumladan, telefon, faks, internetga ulangan bo'lishi lozim.

P.02	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Bosh direktor</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

1. Litsenziya talabgori kundalik faoliyatini yo'lga qo'yish va boshqarish uchun Bosh direktorni tayinlashi lozim. Bosh direktor jamoaning O'ZPFL, O'FA, OFK yoki FIFA kabi tashkilotlar oldidagi mas'uliyati uchun to'liq javobgardir.

2. Bosh direktorning tayinlovi Litsenziya talabgorining Nizomiga asosan klubning tegishli boshqaruvi organi tomonidan amalga oshirilishi zarur.

P.03	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Buxgalter</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

1. Litsenziya talabgori klubning moliyaviy masalalari uchun mas'ul bo'lgan Buxgalterga ega bo'lishi zarur.
2. Buxgalter moliya, buxgalteriya yoki iqtisodiyot sohasida tahsil olgan bo'lishi va soha bo'yicha mutaxassislik diplomiga ega bo'lishi lozim.

P.04	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Xavfsizlik ofitseri</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori xavfsizlik masalalari uchun mas'ul bo'lgan malakali Xavfsizlik ofitseriga ega bo'lishi zarur.

**2.** Xavfsizlik ofitseri eng kamida quyidagi malaka darajalariga ega bo'lishi zarur:

- a) milliy qonunlarga muvofiq harbiy yoki ichki ishlar xodimi guvohnomasi;
- b) O'FA, O'zPFL yoki davlat tashkiloti tomonidan o'tkazilgan sohaga oid maxsus o'quv kursini tamomlagani bo'yicha diplom yoki sertifikat;
- c) ichki ishlar yoki jamoat tartibni saqlash sohasida kamida bir (1) yillik ish tajribasi.

P.05 <b>Matbuot kotibi</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	A	A

**1.** Litsenziya talabgori jamoatchilik bilan ishslash, turli tadbirlarni o'tkazish va klub veb-saytini yuritishga mas'ul bo'lgan malakali Matbuot kotibiga ega bo'lishi kerak.

**2.** Matbuot kotibi kamida quyidagi malaka darajalarining biriga ega bo'lishi zarur:

- a) jurnalist diplomi;
- b) O'FA yoki O'zPFL tomonidan o'tkazilgan soha bo'yicha maxsus o'quv kursini tamomlaganlik bo'yicha sertifikat yoki diplom;
- c) soha bo'yicha kamida bir (1) yillik ish tajribasi.

P.06 <b>Shifokor</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	A	A

**1.** Litsenziya talabgori o'yinlar va mashg'ulotlar paytida tibbiy masalalarga, shuningdek jamoa vakillarining doping iste'molini oldini olishga mas'ul bo'lgan shifokor (lar) ga ega bo'lishi lozim.

**2.** Shifokor tibbiy yo'nalishda tahsil olgan bo'lishi va soha bo'yicha mutaxassislik diplomiga ega bo'lishi shart.

**3.** Klub mavsum oldidan shifokorini O'zPFLda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi zarur.

P.07 <b>Fizioterapevt</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	A	A

**1.** Litsenziya talabgori o'yinlar va mashg'ulotlar davomida birinchi tibbiy yordam qutisi va massaj uchun mas'ul bo'lgan kamida bir (1) nafar fizioterapevtga ega bo'lishi zarur.

**2.** Fizioterapevt soha bo'yicha diplom yoki sertifikatga ega bo'lishi lozim.

**3.** Klub mavsum oldidan fizioterapevti O'zPFLda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi zarur.

P.08 <b>Bosh murabbiy</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori asosiy tarkib uchun javobgar bo'lган va zarur murabbiylig diplomiga ega bosh murabbiyni tayinlashi lozim.

**2.** Bosh murabbiy:

a) "Pro" murabbiylig diplomiga ega bo'lishi; yoki

b) "Pro" diplom uchun OFK tomonidan tan olingan o'quv kursida tahsil olishni boshlagan bo'lishi zarur.

**3.** Klub mavsum oldidan bosh murabbiyni O'zPFLda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi zarur.

P.09 <b>Yordamchi murabbiy</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori asosiy tarkib bosh murabbiyiga barcha masalalarda ko'mak beruvchi zarur murabbiylig diplomiga ega yordamchi murabbiyni tayinlashi zarur.

**2.** Yordamchi murabbiy:

a) "A" diplomiga ega bo'lishi; yoki

b) "A" diploma uchun OFK tomonidan tan olingan o'quv kursida tahsil olishni boshlagan bo'lishi zarur.

**3.** Klub mavsum oldidan bosh murabbiy yordamchisini O'zPFLda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi zarur.

P.10 <b>Yoshlarni tarbiyalash tizimi rahbari</b>	OFK	O'FA/O'ZPFL
	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori klub tizimida yosh futbolchilar tayyorlash dasturini amalga oshirish va uni boshqarishga mas'ul bo'lган, tegishli murabbiylig diplomiga ega yoshlarni tarbiyalash tizimi rahbarini tayinlashi lozim.

**2.** Yoshlarni tarbiyalash tizimi rahbari:

a) "A" diplomiga ega bo'lishi ; yoki

b) "A" diplom uchun OFK tomonidan tan olingan o'quv kursida o'qishni boshlagan bo'lishi lozim;

c) yosh futbolchilarni shug'ullantirish bo'yicha maxsus kursni tamomlagan va bu yo'nalishda yetarli malakaga ega bo'lishi lozim.

P.11	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Yoshlar jamoalari murabbiylari</b>	A	A

**1.** Litsenziya talabgori har bir yosh toifasidagi jamoasi uchun ushbu jamoaga mas'ul bo'lgan eng kamida bir nafar malakali murabbiyni tayinlashi zarur.

**2.** Yoshlar jamoalari murabbiylari:

- a) U-18 jamoasi murabbiyi "A" murabbiylik diplomiga ega bo'lishi lozim;
- b) U-16 jamoasi murabbiyi "B" murabbiylik diplomiga ega bo'lishi lozim;
- c) U-14 jamoasi murabbiyi "C" murabbiylik diplomiga ega bo'lishi lozim;
- d) U-10 jamoasi murabbiyi "C" murabbiylik diplomiga ega bo'lishi lozim.

**e)** yoki zarur diplom uchun OFK tomonidan tan olingan o'quv kursida o'qishni boshlagan bo'lishi zarur;

**f)** yoshlarga murabbiylik qilish bo'yicha maxsus tajriba va ko'nikmaga ega bo'lishi zarur.

**3.** Boshqa yoshlar jamoalari murabbiylari eng kamida "C" murabbiylik diplomiga ega bo'lislari zarur.

**4.** Klub mavsum oldidan yoshlar jamoalari murabbiylarini O'zPFLda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi zarur.

P.12	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Xavfsizlik va qo'riqlashni tashkil etish</b>	A	A

**1.** Litsenziya talabgori uy uchrashuvlarida xavfsizlikni ta'minlash uchun malakali styuardlarni yollashi zarur. Bunda:

**a)** klub styuardlarni ishga olishi; yoki

**b)** stadion egasi yoxud biror tegishli tashkilot bilan styuardlar yollash bo'yicha shartnomaga tuzishi zarur.

P.13	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Xodimlarning huquq va majburiyatları</b>	A	A

**1.** Litsenziya talabgorining barcha xodimlari vazifalari, ularning huquq va vakolatilari yozma shaklda ishlab chiqilgan bo'lishi va xodimlar o'z mehnat majburiyatları bilan tanishgan bo'lishi lozim.

P. 14	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Vakant o'rinni to'ldirish majburiyati</b>	A	A

**1.** Agar mavsum davomida ushbu Reglamentda sanab o'tilgan lavozimlardan biri bo'shab qolsa, Litsenziat ko'pi bilan oltmis (60) kun ichida mazkur lavozimda boshqa malakali shaxs ish boshlashini ta'minlashi zarur.

**2.** Agar ish o'rni kasallik yoki baxtsiz hodisa tufayli bo'shab qolsa va xodimning o'z vazifalarini bajarish uchun tibbiy jihatdan qobiliyatsizligi yetarli asoslar bilan tasdiqlansa, Litsenziar oltmis (60) kunlik muddatni uzaytirishi mumkin.

**3.** Litsenziya talabgori lavozimning bo'shab qolganligi va ushbu lavozimda yangi mutaxassis ish boshlagani to'g'risida ko'pi bilan yetti (7) ish kuni ichida O'zPFLni xabardor qilishi zarur.

P. 15	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Yuriskonsult</b>	<b>B</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori o'z faoliyatining barcha huquqiy masalalarini tartibga solish uchun malakali yuriskonsultni tayinlashi zarur.

**2.** Yuriskonsult zarur yuridik malakaga va soha bo'yicha mutaxassislik diplomiga ega bo'lishi zarur.

P. 16	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Texnik direktor</b>	<b>B</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori texnik direktorini tayinlashi zarur.

**2.** Texnik direktor kamida "A" murabbiylilik diplomiga ega bo'lishi, shuningdek unda boshqaruv hamda yetakchilik qobiliyatlari bo'lishi lozim.

**3.** Texnik direktor quyidagilar uchun mas'ul:

- a) klub falsafasini ishlab chiqish va/yoki amalga tatbiq etish;
- b) yosh futbolchilarni tarbiyalash tizimi va yoshlari futbolini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;
- c) texnik standartlarga rioya qilinishini nazorat qilish;
- d) klub tizimida joriy etilgan barcha texnik va rivojlantirish dasturlarini monitoring qilib borish;
- e) yosh iste'dodlarni qidirish (skouting);
- f) klub akademiyasi ish-faoliyatini muvofiqlashtirish;
- g) klubda murabbiylar va skautlarni ishga olish tartibini nazorat qilish;
- h) o'yinlarni tahlil qilish jarayonlarini boshqarish.

P. 17	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Darvozabonlar murabbiyi</b>	<b>B</b>	<b>B</b>

**1.** Litsenziya talabgori asosiy tarkib uchun zarur murabbiylilik diplomiga ega darvozabonlar murabbiyini tayinlashi kerak.

**2.** Darvozabonlar murabbiyi:

a) OFK musobaqalarni o'tkazish qo'llanmasida majburiy etib belgilangan minimal murabbiylit darajasi – "Level 3" diplomiga ega bo'lisi lozim; yoki

b) "Level 3" murabbiylit diplomini olish uchun OFK tomonidan tan olingan o'quv kursida o'qishni boshlagan bo'lisi zarur.

P. 18	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Jismoniy tayyorgarlik murabbiyi</b>	<b>B</b>	<b>B</b>

**1.** Litsenziya talabgori asosiy tarkib uchun tegishli murabbiylit diplomiga ega jismoniy tayyorgarlik murabbiyini tayinlashi kerak.

**2. Jismoniy tayyorgarlik murabbiyi:**

a) OFK musobaqalarni o'tkazish qo'llanmasida majburiy etib belgilangan minimal murabbiylit darajasi – "Level 2" diplomiga ega bo'lisi; yoki

b) "Level 2" murabbiylit diplomini olish uchun OFK tomonidan tan olingan o'quv kursida o'qishni boshlagan bo'lisi zarur.

P. 19	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Marketing mutaxassisি</b>	-	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori malakali marketing mutaxassisini tayinlashi kerak.

**2. Marketing bo'yicha mutaxassis:**

a) oliy ma'lumotga ega bo'lisi lozim;

b) soha bo'yicha kamida bir (1) yillik ish tajribasiga ega bo'lisi, kreativlik va kirishuvchanlik kabi xususiyatlarga ega bo'lisi lozim;

c) klub brendini shakllantirish, uning muxlislar auditoriyasini ko'paytirish, homiy hamda hamkorlar bilan aloqalarini yaxshilash, reklama kabi masalalarga javobgardir.

### 16-bob. Yuridik mezon

L.01	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>O'zPFL va OFK musobaqalarida qatnashish bo'yicha deklaratsiya</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori quydagilarni tasdiqlovchi yuridik kuchga ega deklaratsiyani taqdim etishi kerak:

a) u FIFA, OFK, O'FA va O'zPFLning futbol faoliyatini tartibga solish bo'yicha yuridik kuchga ega bo'lgan barcha nizom, reglament, me'yoriy hujjatlari va qarorlarini tan oladi;

- b) u FIFA va OFK ishtirokidagi har qanday xalqaro nizoli vaziyatlarni hal etish bo'yicha Lozannadagi Sport Arbitraj Sudining mutlaq yurisdiksiyasini tan oladi;
- c) FIFA va OFK nizomiga ko'ra, u umumiy yurisdiktsiya sudlariga murojaat qilish taqiqlanganini tan oladi;
- d) u miliy darajada faqatgina O'FA tomonidan tasdiqlangan va tan olinadigan O'zPFL musobaqalarda ishtirok etishi mumkin;
- e) u xalqaro miqiyosda OFK yoki FIFA tan olgan musobaqalarda qatnashadi. Ushbu qoida o'rtoqlik uchrashuvlariga taaluqli emas;
- f) u Litsenziyalash Reglamentida ko'rsatilgan shartlarga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi;
- g) barcha taqdim etilgan hujjatlar to'liq va ishonchli ekanı borasıdagi mas'uliyat Litsenziya talabgorining zimmasida ekanini tan oladi;
- h) taqdim etilgan barcha hujjatlar to'g'ri va to'liq;
- i) Litsenziar Litsenziya talabgori tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to'liq va haqiqiyligini tekshirish maqsadida tegishli tashkilotlarga so'rov yuborish huquqiga ega;
- j) u O'zPFL hamda OFKning milliy darajada muvofiqlik auditini o'tkazish huquqini o'zida saqlab qolishini tan oladi.

2. Mazkur deklaratsiya uni imzolash huquqiga ega bo'lgan Litsenziya talabgorining bosh direktori tomonidan hujjatlar taqdim etishning yakuniy muddatidan ko'pi bilan uch (3) oy oldin imzolanadi va Litsenziarga taqdim qilinadi.

L.02	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Yuridik hujjatlar</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

1. Litsenziya talabgori quydagi hujjatlarni taqdim etishi zarur:
- a) Litsenziya talabgorining amaldagi qonunchilik bo'yicha ro'yxatdan o'tgan ta'sis hujjati nusxasi (ustav);
- b) Litsenziya talabgorining yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi:
- i. ro'yxatdan o'tgan nomi;
  - ii. ommaboplashgan nomi;
  - iii. yuridik manzili;
  - iv. tashkiliy-huquqiy shakli;
  - v. Vakolatli imzolovchilarning ro'yxati.
- c) (tegishli hollarda) Litsenziya talabgori va a'zo yoki qatnashchi o'rtasida tuzilgan kelishuv bitmi.

L.03	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Mulk huquqi va klublarni boshqarish</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori klubni boshqarish mexanizmi va mulkchilik shakli aniq ko'rsatilgan tegishli hujjatni taqdim etishi lozim. Bunday deklaratsiya quyida keltirilgan shartlarning muvofiqligini ta'minlanishi kerak.

Klub boshqaruvida, ma'muriyatda va/yoki klub sport faoliyatida qatnashadigan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs bevosita yoki bilvosita:

- a) ayni musobaqada qatnashayotgan boshqa klubning qimmatli qog'ozlari, aksiyalari yoki ulushining egasi bo'lmasligi va ular bilan ishlamasligi zarur;
- b) ayni musobaqada qatnashayotgan boshqa klubning aksionerlari ichida ko'pchilik ovozga ega bo'lmasligi kerak;
- c) ayni musobaqada qatnashayotgan boshqa bir klubning boshqaruvi, ma'muriyati va kuzatuv organidan kimnidir ishga tayinlash va ishdan bo'shatish huquqiga ega bo'lmasligi lozim;
- d) boshqa bir klub aksiyalariga (ulushlariga), garchi qolgan aksiyadorlar bilan kelishgan taqdirida ham, egalik qila olmaydi;
- e) ayni musobaqada qatnashayotgan boshqa bir klubning vakili yoki a'zosi bo'lmasligi shart;
- f) ayni musobaqada qatnashayotgan boshqa bir klubning ma'muriyati, boshqaruvida ishlamasligi va/yoki sport yutuqlarida, faoliyatida ishtirok etmasligi zarur;
- g) ayni musobaqada qatnashayotgan boshqa bir klubda har qanday ta'sir kuchiga ega bo'lmasligi shart.

**2.** Mazkur deklaratsiya uni imzolash huquqiga ega bo'lgan Litsenziya talabgorining bosh direktori tomonidan hujjatlar taqdim etishning yakuniy muddatidan ko'pi bilan uch (3) oy oldin imzolanadi va Litsenziarga taqdim qilinadi.

L.04	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Kompaniyalar guruhi tuzilmasi va asosiy nazorat qiluvchi</b>	A	A

**1.** Litsenziya talabgori Litsenziarga hujjatlar taqdim etishning yakuniy muddati oldidan o'zining yuridik guruh strukturasi to'g'risidagi ma'lumotni topshirishi zarur. U rahbariyat tomonidan tasdiqlangan bo'lishi va sxema yoki diagramma ko'rinishida taqdim etilishi kerak. Litsenziar Litsenziya talabgorining umumiylar tuzilmasiga aloqador yuz berishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlardan xabardor etilishi shart.

- 2.** Ushbu hujjat quydagilar to'g'risidagi ma'lumotni aniq ifoda etishi zarur:
- a) Litsenziya talabgori yoki ayrim hollarda O'zPFL a'zosi yoxud qatnashchisi to'g'risida;
  - b) Litsenziya talabgorining har qanday filiali yoki sho'ba korxonasi to'g'risida;
  - c) Litsenziya talabgoriga aloqador har qanday kompaniya birlashmasi yoki qo'shma korxona to'g'risida;

d) Litsenziya talabgorini bevosita yoki bilvosita boshqaruvchi yoki nazorat qiluvchi har qanday tashkilot to'g'risida;

e) Litsenziya talabgorining 10 foiz yoki undan ortiq egalik huquqiga yoxud ovoz berish huquqiga ega bo'lgan har qanday subyekt to'g'risida;

f) Litsenziya talabgori uchun se'zilarli ta'sirga ega har qanday subyekt to'g'risida;

g) (a) dan (f) gacha bo'lgan bandlarda ko'zda tutilgan istalgan tomonning mulk huquqi, ovoz berish huquqi yoki boshqaruvi va moliyaviy siyosatiga ta'siri bor bo'lgan boshqa har qanday futbol klubi to'g'risida;

h) moliyaviy mezonda nazarda tutilgan hisobot berish doirasi ham ayni hujjatda aniq ko'rsatilishi kerak.

**3.** Zarur hollarda Litsenziar Litsenziya talabgori/Litsenziyatdan yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha hujjatlar ham taqdim etishni so'rashi mumkin

**4.** Yuridik guruh tuzilmasiga kiritilgan barcha subyektlarga oid quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi kerak:

a) yuridik shaxs nomi;

b) yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli;

c) yuridik shaxsning asosiy faoliyat turi;

d) egalik qilinadigan foizlar (yoki, egalik qilinadigan ovozlar foizi).

**5.** Litsenziya talabgori/Litsenziyatning har qanday filial yoki sho'ba korxonasi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishi zarur:

a) ustav kapitali;

b) umumiyl aktivlari;

c) umumiyl daromadlar;

d) jami kapitali.

L.05	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Professional futbolchilar bilan shartnomalar</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori professional futbolchilari bilan FIFAning Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha Reglamenti qoidalariga muvofiq milliy qonunchilik, FIFA, OFK, O'FA va O'zPFL normativ hujjatlariga zid bo'limgan shartlar asosida shartnoma tuzishi kerak.

L.06	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Odob-axloq va tartib-intizom masalasi</b>	<b>B</b>	<b>B</b>

**1.** Litsenziya talabgori FIFA, OFK, O'FA hamda O'zPFL normativ hujjatlari, shuningdek tegishli milliy qonunchilikka muvofiq o'yinchilar va jamoa rasmiylari uchun Odob-axloq qoidalari majmuyini ishlab chiqishi lozim.

2. Klubning Odob-axloq qoidalari majmuyi ijrosini ta'minlash maqsadida Litsenziya talabgori O'zbekiston qonunchiligi, FIFA, OFK, O'FA hamda O'zPFL normativ hujjatlariga muvofiq tarzda klubning ichki Tartib-intizom kodeksini ham ishlab chiqishi talab etiladi. Ushbu kodeksda ko'rsatilgan bandlarning buzilishi belgilangan tartibda vakolatli organ tomonidan sanktsiyalarga tortishga sabab bo'lishi mumkin.

### **17-bob. Moliyaviy mezon**

#### **1. Hisobot beruvchi tashkilot va hisobot tartibi**

a) Litsenziya talabgori hisobot tayyorlash doirasini belgilaydi va o'z tuzilmasidan kelib chiqqan holda yagona yoki bir nechta yuridik shaxsning moliyaviy ma'lumotlarini yakka yoxud umumlashtirilgan moliyaviy hisobotlar tarzida Litsenziarga taqdim etadi.

b) Hisobot tayyorlash doirasi quyidagilarni qamrab olishi zarur:

- i. Litsenziya talabgori yoki ayrim hollarda O'zPFLning a'zo yoxud qatnashchisi;
- ii. Litsenziya talabgorining har qanday sho'ba korxonasi;
- iii. keyingi c bandning iii.dan x.gacha bo'lgan punktlarida qayd etilgan futbolga oid jarayonlardan daromad oladigan va/yoki xizmatlar ko'rsatadigan va/yoki xarajatlarni qoplaydigan Litsenziya talabgorining kompaniyalar guruhi tuzilmasiga kiritilgan har qanday yuridik shaxs yoki subyekt;
- iv. Litsenziya talabgorining kompaniyalar guruhi tuzilmasiga kiritilgan yoki kiritilmaganidan qat'iy nazar keyingi c bandning i. va ii. punktlarida qayd etilgan futbolga oid jarayonlardan daromad oladigan va/yoki xizmatlar ko'rsatadigan va/yoki xarajatlarni qoplaydigan har qanday yuridik shaxs yoki subyekt.

c) Futbolga oid jarayonlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- i. F.04 bandda belgilanganidek xodimlarni yollash / ishga olish, shu jumladan xodimlarga shartnomalar majburiyatlardan kelib chiqqan holda mehnatga haq to'lash;
- ii. futbolchilarni sotib olish yoki sotish (shu jumladan ijara berish yoki olish ham);
- iii. chiptalar sotuvi;
- iv. homiylik va reklamalar;
- v. o'yinlar translyatsiyasi;
- vi. merchendayzing;
- vii. klub faoliyati (xususan, ma'muriy ishlar, o'yin kungi tadbirlar, safarlar, skautlik faoliyati va hokazo);

- viii. moliyalashtirish (Litsenziya talabgorining barcha aktivlarini o'z ichiga oladi);
- ix. stadion va o'quv-mashg'ulot qarorgohidan foydalanish va ularni boshqarish;
- x. yoshlar sektori.

d) Har qanday yuridik shaxs yoki subyekt faqatgina quyidagi hollarda hisobot tayyorlash doirasidan chiqarilishi mumkin:

- i. uning faoliyati yuqoridagi c bandda qayd etilgan futbolga oid jarayonlar va futbol klubining aktivlari hamda brendi bilan umuman bog'liq bo'lmasa;
- ii. hisobot tayyorlash doirasiga kiritiladigan barcha subyektlar bilan taqqoslaganda daraja jihatidan ahamiyatsiz bo'lsa va u c bandning i. va ii. punktlarida qayd etilgan futbolga oid jarayonlar bilan shug'ullanmasa;
- iii. u amalga oshiradigan futbol faoliyati allaqachon hisobot tayyorlash doirasiga kiritilgan boshqa subyektning moliyaviy hisobotida to'liq aks etgan bo'lsa.

e) Litsenziya talabgori vakolatli shaxs tomonidan imzolangan quyidagilarni tasdiqlovchi deklaratsiyani taqdim etishi kerak:

- i. c bandda qayd etilgan barcha futbolga oid jarayonlar bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar hisobot tayyorlash doirasiga kiritilgan va moliyaviy hisobotlarda ularga batafsil izoh berilganligi;
- ii. agar Litsenziya talabgorining kompaniyalar guruhi tuzilmasiga kiradigan biror subyekt hisobot tayyorlash doirasidan o'rin olmagan bo'lsa, d bandga asosan buning sabablari ko'rsatilganligi.

F.01	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Audit tekshiruvidan o'tkazilgan oxirgi yillik moliyaviy hisobotlar</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgorining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazat u milliy qonunchilikka muvofiq ravishda yillik moliyaviy hisobot tayyorlashi kerak. Ushbu hisobot mustaqil auditorlar tomonidan tekshirilgan bo'lishi lozim.

**2.** Audit tekshiruvidan o'tkazilgan moliyaviy hisobotlar muayyan yakuniy sanaga qadar Litsenziarga taqdim etilishi va undan quyidagilar o'rin olgan bo'lishi lozim:

- a) Buxgalteriya balansi;
- b) Foya va zararlar hisobi (Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot);
- c) Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot;

- d) buxgalteriya hisobi yuritilishining qisqa tavsifi hamda boshqa qo'shimcha ma'lumotlar;
- e) moliyaviy boshqaruv tahlili.

**3.** Audit tekshiruvidan o'tkazilgan oxirgi yillik moliyaviy hisobotlar Litsenziya talabgori va Litsenziar o'rtasida sir saqlanishi hamda ular OFKning Klublarni litsenziyalash bo'yicha moliyaviy qo'llanmasida belgilangan buxgalteriya tamoyillariga va undagi minimum talablarga javob berishi zarur.

**4.** Audit tekshiruvidan o'tkazilgan oxirgi yillik moliyaviy hisobotlar OFKning Klublarni litsenziyalash bo'yicha moliyaviy qo'llanmasida belgilangan minimal talablarga va buxgalteriya hisobini yuritish tamoyillariga javob bermasa, Litsenziya talabgori qo'shimcha moliyaviy hisobotlarni tayyorlab, dastlab auditorga, auditor shu ish bo'yicha o'z xulosasini berganidan so'ng esa Litsenziarga taqdim etishi lozim.

F.02	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Tekshiruvdan o'tgan oraliq moliyaviy hisobot</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Belgilangan muayyan yakuniy sana va OFKga litsenziyalash jarayoni yakunlari taqdim etiladigan muddat oralig'i olti (6) oydan ko'proq bo'lsa, Litsenziya talabgori oraliq davrni qamrab oluvchi qo'shimcha moliyaviy hisobotlarni tayyorlaydi va Litsenziarga taqdim etadi.

**2.** Oraliq moliyaviy hisobot litsenziyalash qarorlari ro'yxati OFKga taqdim etiladigan muddatdan oldingi olti (6) oy ichidagi oraliq davrni qamrab olishi va mustaqil auditor tomonidan ko'rib chiqilishi yoki tekshirilishi kerak.

**3.** Oraliq moliyaviy hisobot OFKning Klublarni litsenziyalash bo'yicha moliyaviy qo'llanmasida belgilangan minimal talablarga va buxgalteriya hisobini yuritish tamoyillariga javob berishi kerak.

F.03	OFK	O'FA/O'ZPFL
<b>Transferlar bo'yicha boshqa klublar oldida muddati o'tgan qarzdorliklarning yo'qligi</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziya talabgori transferlar bo'yicha boshqa klublar oldida muddati o'tgan qarzdorliklarning yo'q ekanini joriy mavsumning 30-iyun sanasiga qadar isbotlay olishi lozim yoxud mos ravishda 31-avgustga qadar qarzni to'liq to'lashi, o'zaro ikki tomonlama kelishuv asosida qarz to'lash muddatini cho'zdirishi yoki tegishli vakolatli organga ushbu nizo asossiz ekani bo'yicha da'vo bergen bo'lishi kerak.

F.04	OFK	O'FA/O'ZPFL

<b>Xodimlar, soliq organlari va boshqa tashkilotlar oldida muddati o'tgan qarzdorliklarning yo'qligi</b>	<b>A</b>	<b>A</b>
--	----------	----------

**1.** Litsenziya talabgori shartnomadagi mehnat va huquqiy majburiyatlar asosida o'zining hozirgi va sobiq xodimlari, shuningdek soliq va boshqa idorlar oldida muddati o'tgan qarzdorliklarning yo'q ekanini joriy mavsumning 30-iyun sanasiga qadar isbotlay olishi lozim yoxud mos ravishda 31-avgustga qadar qarzni to'liq to'lashi, o'zaro ikki tomonlama kelishuv asosida qarz to'lash muddatini cho'zdirishi yoki tegishli vakolatli organga ushbu nizo asossiz ekani bo'yicha da'vo bergen bo'lishi kerak.

**2.** "Xodimlar" atamasi eng kamida quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) FIFAning Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha Reglamentiga muvofiq barcha professional o'yinchilar;
- b) Reglamentda qayd etilgan ma'muriy, texnik, tibbiyot va xavfsizlik xodimlari;
- c) shuningdek, klub bilan mehnat shartnomasi imzolagan boshqa yo'nalish mutaxassislari.

<b>F.05</b>	<b>OFK</b>	<b>O'FA/O'ZPFL</b>
<b>Litsenziyalash qarori chiqishi oldidan yozma ariza</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1.** Litsenziyalash qo'mitasining yakuniy qarori qabul qilinadigan sana oldidan yetti (7) kun muddat ichida Litsenziya talabgori Litsenziarga yozma ravishda ariza taqdim etishi lozim.

**2.** Litsenziya talabgorining yozma arizasi quyidagilarni tasdiqlaydi:

- a) Litsenziarga taqdim etilgan barcha hujjatlar to'liq va to'g'rilingini;
- b) klubda litsenziyalash mezonlariga aloqador sezilarli o'zgarishlarning sodir bo'lgan yoki bo'lmasligini;
- c) audit tekshiruvidan o'tkazilgan oxirgi yillik moliyaviy hisobotlar hamda oraliq moliyaviy hisobotdan o'rinni olgan balans kundan buyon Litsenziya talabgorining moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli mavjud jiddiy iqtisodiy ahamiyatga ega hodisa ro'y bergan yoki bermaganligi. Agar jiddiy iqtisodiy ahamiyatga ega har qanday hodisa ro'y bergan bo'lsa, yozma arizada uning tavsifi va moliyaviy ta'siri bo'yicha ma'lumot taqdim etilishi kerak;

d) Litsenziya talabgori yoki Litsenziya talabgorining hisobot tayyorlash doirasiga kiritilgan har qanday kompaniya so'ngi 12 oy ichida qonunchilikka asosan kreditorlardan yordam olgan yoki olmaganligini.

**3.** Yozma arizaning rahbariyat tomonidan tasdiqlanganiga dalil sifatida unga Litsenziya talabgorining ijro organi nomidan imzo qo'yilgan bo'lishi kerak.

<b>F.06</b>	<b>OFK</b>	<b>O'FA/O'ZPFL</b>
-------------	------------	--------------------

**1.** Litsenziya talabgori agar 2-bandda qayd etilgan ko'rsatkichlardan birida kamchiliklarga ega bo'lsa, u kamida litsenziya mavsumining oxiriga qadar faoliyat yuritishini kafolatlashini bildirish maqsadida kelgusi moliyaviy axborotni tayyorlashi va taqdim etishi kerak.

**2.** Agar Litsenziya talabgori hisobotlarida quyidagi ko'rsatkichlarda tavsiflangan belgilar kuzatilsa, u ushu ko'rsatkichni buzgan hisoblanadi:

**a) Ko'rsatkich 1: Faoliyatni davom ettirish masalasi**

F.01 va F.02 bandlarga binoan taqdim etilgan audit tekshiruvidan o'tkazilgan yillik yoki oraliq moliyaviy hisobotlarga ilova tarzida auditorlik hisobotida yoki xulosasida masalaning ahamiyatini to'liq olib berish zaruriyati yuzaga kelgan qo'shimcha ma'lumotlar mavjud bo'lsa;

**b) 2-ko'rsatkich: Salbiy kapital**

F.01 bandga muvofiq taqdim etilgan audit tekshiruvidan o'tkazilgan yillik moliyaviy hisobot (shu jumladan, zarur holatlarda qo'shimcha ma'lumot) dan o'rinn olgan ko'rsatkichlar o'tgan yilgi audit tekshiruvidan o'tkazilgan yillik moliyaviy hisobot bilan taqqoslaganda salbiy ko'rinish olsa, yoki F.02 bandga muvofiq taqdim etilgan oraliq moliyaviy hisobotdagি ko'rsatkichlar belgilangan muayyan yakuniy sanadagi ko'rsatkichlarga nisbatan yomonlashgan bo'lsa.

**3.** Kelgusi moliyaviy axborot audit tekshiruvidan o'tgan yillik moliyaviy hisobotlarning muayyan yakuniy sanasidan keyingi yoki oraliq moliyaviy hisobotlarning balans sanasidan keyin boshlangan davrni va kamida Litsenziya mavsumi yakunigacha bo'lgan muddatni qamrab olishi kerak.

**4. Kelgusi moliyaviy axborot quyidagilardan iborat bo'ladi:**

a) oldingi moliyaviy yil va oraliq davr bilan solishtirma ko'rsatkichlar aks etgan foyda va zararlar hisobi (daromadlar va xarajatlar smetasi loyihasi);

b) oldingi moliyaviy yil va oraliq davr bilan solishtirma ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan pul oqimi hisobi (pul vositalari harakati haqida hisobot loyihasi);

c) daromadlar va xarajatlar, pul oqimi hisobi to'g'risidagi hisobotni tuzishda inobatga olingan har qanday muhim ehtimoliy jihatlarning qisqacha tavsifi izohi, shuningdek kelgusida moliyaviy holatga ta'sir qilishi ehtimoli mavjud voqealar.

**5. Kelgusi moliyaviy axborot choraklar kesimida tayyorlanishi kerak.**

**6.** Kelgusi moliyaviy axborot audit tekshiruvidan o'tkazilgan oxirgi yillik moliyaviy hisobotlar bilan izchil ravishda tayyorlanishi va ayni o'sha yillik moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda qo'llanilgan buxgalteriya yuritish hisobi tartibida ishlab chiqilishi lozim.

**7.** Kelgusi moliyaviy axborot OFKning Klublarni litsenziyalash bo'yicha moliyaviy qo'llanmasida belgilangan minimal talablarga va buxgalteriya hisobini yuritish tamoyillariga javob berishi kerak.

**8. Kelgusi moliyaviy axborotning rahbariyat tomonidan tasdiqlanganiga dalil sifatida unga Litsenziya talabgorining ijro organi nomidan imzo qo'yilgan bo'lishi va ilova tarzida qisqa izoh yozilgan bo'lishi kerak.**

### **KELGUSI MA'LUMOT**

F.08 va F.09 bandlar Litsenziya berish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng qo'llaniladi. F.08 barcha Litsenziatlarga nisbatan qo'llaniladi. F.09 esa faqatgina taqdim etilgan hujjatlarda kamchilikka yo'l qo'ygan Litsenziatlarga nisbatan qo'llaniladi

F.08	O'FK	O'FA/O'ZPFL
<b>Kelgusi hodislari to'g'risida xabar berish majburiyati</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1. Litsenziyalash qo'mitasining yakuniy qaroridan so'ng Litsenziyat uning kamida Litsenziya taqdim etilgan mavsumming oxiriga qadar faoliyatini davom ettirishiga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin bo'ladigan biror voqeа ro'y bersa, u bu haqda Litsenziarni yozma ravighda darhol xabardor qilishi majburiyatini oladi.**

**2. Litsenziyatning ushbu mezonga muvofiqlik ish yuritishi Litsenziar tomonidan nazorat qilinadi.**

F.09	O'FK	O'FA/O'ZPFL
<b>Kelgusi moliyaviy axborotni yangilash majburiyati</b>	<b>A</b>	<b>A</b>

**1. Agar Litsenziyat quyidagi ko'rsatkichlardan birini yoki bir nechtasini buzsa, u holda Litsenziyat kelgusidagi moliyaviy axborotni yangilashi (F.06 ga binoan) lozim bo'ladi. Bundan tashqari, tayyorlangan axborot byudjetni ayni vaqtgagi aniq ko'rsatkichlar bilan taqqoslash, shu jumladan farqlar bo'yicha izohlarni o'z ichiga olishi lozim. Kelgusi moliyaviy axborotning yangilangan talqini kamida olti (6) oy muddat asosida tayyorlanishi zarur.**

#### **1- Faoliyatni davom ettirish masalasi**

F.01 va F.02 bandlarga binoan taqdim etilgan audit tekshiruvidan o'tkazilgan yillik yoki oraliq moliyaviy hisobotlarga ilova tarzida auditorlik hisobotida yoki xulosasida masalaning ahamiyatini to'liq ochib berish zaruriyati yuzaga kelgan qo'shimcha ma'lumotlar mavjud bo'lsa;

#### **2-ko'rsatkich: Salbiy kapital**

F.01 bandga muvofiq taqdim etilgan audit tekshiruvidan o'tkazilgan yillik moliyaviy hisobot (shu jumladan, zarur holatlarda qo'shimcha ma'lumot) dan o'rinnan ko'rsatkichlar o'tgan yilgi audit tekshiruvidan o'tkazilgan yillik moliyaviy hisobot bilan taqqoslaganda salbiy ko'rinish olsa, yoki F.02 bandga muvofiq taqdim etilgan oraliq moliyaviy hisobotdagi ko'rsatkichlar belgilangan muayyan yakuniy sanadagi ko'rsatkichlarga nisbatan yomonlashgan bo'lsa.

**2.** Yangilangan kelgusi moliyaviy axborot OFKning Klublarni litsenziyalash bo'yicha moliyaviy qo'llanmasida belgilangan minimal talablarga va buxgalteriya hisobini yuritish tamoyillariga javob berishi kerak.

**3.** Ushbu mezonga muvofiqlik keyingi litsenziyalash sikli oldidan Litsenziar tomonidan baholanadi.

### **18-bob. OFK ayollar championlar ligasi uchun klublarni litsenziyalash mezonlari**

Litsenziya talabgori OFK ayollar championlar ligasida qatnashish huquqini beruvchi Litsenziyaga ega bo'lismi uchun quyidagi litsenziyalash mezonlarini bajarishi lozim:

#### **Sport mezoni**

##### **1. Yoshlar jamoalari**

a. Litsenziya talabgori kamida bitta U15 yoki U16 yoki U17 qizlardan iborat yoshlar jamoasiga ega bo'lishi zarur.

b. Yoshlar jamoasi O'zPFL tomonidan o'tkaziladigan milliy championatda ishtirok etishi lozim.

##### **2. O'yinchilarning tibbiy tekshiruvi**

a. Litsenziya talabgori ro'yxatdan o'tgan barcha o'yinchilarning tibbiy xizmat bilan ta'minlanishini kafolatlashi lozim. Bu o'z ichiga kamida quyidagi shartlarni qamrab oladi:

- i. Asosiy tarkibning har bir o'yinchisi uchun yurak qon-tomir skriningini qamrab olgan har yilgi tibbiy tekshiruv;
- II. 12 yoshdan yuqori barcha o'yinchilar uchun yillik tibbiy tekshiruv.

##### **3. Futbolchilarni ro'yxatdan o'tkazish**

a. Litsenziya talabgorining 12 yoshdan yuqori bo'lgan barcha futbolchilari FIFAning Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha reglamenti qoidalariiga muvofiq O'zPFLda ro'yxatdan o'tkazilishi shart.

#### **Infratuzilma mezoni**

##### **4. Musobaqalarni o'tkazish uchun tasdiqlangan stadion**

a. Litsenziya talabgori O'zPFL hamda OFK musobaqalari doirasidagi uy uchrashuvlarini o'tkazish uchun stadionga ega bo'lishi zarur. Litsenziya talabgori:

- i. o'z stadiioniga ega bo'lishi lozim; yoki

II. stadion egasi bilan undan foydalanish bo'yicha shartnomaga ega bo'lislari zarur. Ushbu shartnoma kelgusi mavsumda ham Litsenziya talabgorining stadiondan foydalanishini kafolatlashi zarur.

b. Stadion quyidagi normativ hujjatlarda belgilangan talablarga javob berishi lozim:

- i. Stadionlar to'g'risidagi Nizom;
- II. Musobaqalar Reglamenti;

c. Stadion mavsum oldidan O'zPFL tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanishi va Litsenziya talabgori sharafini himoya qiluvchi shaharda joylashgan bo'lishi lozim.

## **5. O'quv-mashg'ulot qarorgohining mavjudligi**

Litsenziya talabgori yil davomida o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazishi mumkin bo'lган qarorgohga ega bo'lishi zarur. Litsenziya talabgori:

- i. o'z tasarrufida o'quv-mashg'ulot qarorgohiga ega bo'lishi kerak; yoki
- II. o'quv-mashg'ulot qarorgohi egasi bilan undan yil davomida foydalanish bo'yicha shartnomaga ega bo'lishi kerak.

## **Xodimlar va ma'muriyat mezon**

### **6. Klub kotibiysi**

a. Litsenziya talabgori ma'muriy faoliyatni amalga oshirish uchun o'z idorasiga ega bo'lishi zarur.

b. Klub kotibiyatida zarur ko'nikmaga ega xodimlar faoliyat olib borishi va ularning eng kamida bir nafari o'zbek va ingliz tillarida so'zlasha olishi hamda klubning elektron pochtasini yuritishi lozim.

c. Klub kotibiysi ish olib boradigan idora zarur infratuzilma, jumladan, telefon, faks, internetga ulangan bo'lishi lozim.

### **7. Menejer**

a. Litsenziya talabgori ayollar futboli bilan bog'liq operativ masalalar uchun mas'ul bo'lган menejerni tayinlagan bo'lishi kerak.

### **8. Shifokor**

a. Litsenziya talabgori o'yinlar va mashg'ulotlar paytida tibbiy masalalarga, shuningdek jamoa vakillarining doping iste'molini oldini olishga mas'ul bo'lган kamida bir nafer shifokorga ega bo'lishi lozim.

b. Shifokor tibbiy yo'nalishda tahsil olgan bo'lishi va soha bo'yicha mutaxassislik diplomiga ega bo'lishi shart.

v. Klub mavsum oldidan shifokorini O'zPFLda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi zarur.

### **9. Fizioterapevt**

- a. Litsenziya talabgori o'yinlar va mashg'ulotlar davomida birinchi tibbiy yordam qutisi va massaj uchun mas'ul bo'lgan kamida bir (1) nafar fizioterapevtga ega bo'lishi zarur.
- b. Fizioterapevt soha bo'yicha diplom yoki sertifikatga ega bo'lishi lozim.
- c. Klub mavsum oldidan fizioterapevtni O'zPFLda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi zarur.

**Qo'shimcha talab:** Shifokor yoki fizioterapevtlar ichida kamida bir (1) nafari ayol kishi bo'lishi kerak.

### **10. Ayollar jamoasining bosh murabbiyi**

- a. Litsenziya talabgori ayollar jamoasi uchun javobgar bo'lgan va zarur murabbiyligini diplomiga ega bosh murabbiyni tayinlashi lozim.
- b. Bosh murabbiy:
  - i. "A" murabbiyligini diplomiga ega bo'lishi; yoki
  - ii. "A" diplom uchun OFK tomonidan tan olingan o'quv kursida tahsil olishni boshlagan bo'lishi zarur.
- c. Klub mavsum oldidan bosh murabbiyni O'zPFLda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishi zarur.

### **11. Yoshlar murabbiyi**

- a. Litsenziya talabgori yoshlar jamoasi uchun mas'ul bo'lgan eng kamida bir nafar malakali murabbiyni tayinlashi zarur.
- b. Yoshlar murabbiyi kamida "B" murabbiyligini diplomiga ega bo'lishi;

### **12. Huquqlar, majburiyatlar va burchlar**

- a. 6-11 bandlarda keltirilgan Litsenziya talabgorining barcha xodimlari vazifalari, ularning huquq va vakolatilari yozma shaklda ishlab chiqilgan bo'lishi va xodimlar o'z mehnat majburiyatlarini bilan tanishgan bo'lishi lozim.

### **13. Vakant o'rinni to'ldirish majburiyati**

- a. Agar mavsum davomida 6-11 bandlarda sanab o'tilgan lavozimlardan biri bo'shab qolsa, Litsenziyat ko'pi bilan oltmis (60) kun ichida mazkur lavozimda boshqa malakali shaxs ish boshlashini ta'minlashi zarur.
- b. Agar ish o'rni kasallik yoki baxtsiz hodisa tufayli bo'shab qolsa va xodimning o'z vazifalarini bajarish uchun tibbiy jihatdan qobiliyatsizligi yetarli asoslar bilan tasdiqlansa, Litsenziyar oltmis (60) kunlik muddatni uzaytirishi mumkin.

c. Litsenziya talabgori lavozimning bo'shab qolganligi va ushbu lavozimda yangi mutaxassis ish boshlagani to'g'risida ko'pi bilan yetti (7) ish kuni ichida O'zPFLni xabardor qilishi zarur.

### **Yuridik mezon**

#### **14. OFK ayollar championlar ligasida qatnashish bo'yicha deklaratsiya**

a. Litsenziya talabgori quyidagilarni tasdiqlovchi yuridik kuchga ega deklaratsiyani taqdim etishi kerak:

- i. u FIFA, OFK, O'FA va O'zPFLning futbol faoliyatini tartibga solish bo'yicha yuridik kuchga ega bo'lgan barcha nizom, reglament, me'yoriy hujjatlari va qarorlarini tan oladi;
- ii. u FIFA va OFK ishtirokidagi har qanday xalqaro nizoli vaziyatlarni hal etish bo'yicha Lozannadagi Sport Arbitraj Sudining mutlaq yurisdiksiyasini tan oladi;
- iii. FIFA va OFK nizomiga ko'ra, u umumiy yurisdiktsiya sudlariga murojaat qilish taqiqlanganini tan oladi;
- iv. u miliy darajada faqatgina O'FA tomonidan tasdiqlangan va tan olinadigan O'zPFL musobaqalarda ishtirok etishi mumkin;
- v. u xalqaro miqiyosda OFK yoki FIFA tan olgan musobaqalarda qatnashadi. Ushbu qoida o'rtoqlik uchrasuvlariga taaluqli emas;
- vi. u Litsenziyalash Reglamentida ko'rsatilgan shartlarga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi;
- vii. barcha taqdim etilgan hujjatlar to'liq va ishonchli ekanı borasidagi mas'uliyat Litsenziya talabgorining zimmasida ekanini tan oladi;
- viii. taqdim etilgan barcha hujjatlar to'g'ri va to'liq;
- ix. Litsenziar Litsenziya talabgori tomonidan taqdim etilgan hujjatlar to'liq va haqiqiyligini tekshirish maqsadida tegishli tashkilotlarga so'rov yuborish huquqiga ega;
- x. u O'zPFL hamda OFKnинг milliy darajada muvofiqlik auditini o'tkazish huquqini o'zida saqlab qolishini tan oladi.

b. Mazkur deklaratsiya uni imzolash huquqiga ega bo'lgan Litsenziya talabgorining bosh direktori tomonidan hujjatlar taqdim etishning yakuniy muddatidan ko'pi bilan uch (3) oy oldin imzolanadi va Litsenziarga taqdim qilinadi.

#### **15. Professional futbolchilar bilan shartnomalar**

a. Litsenziya talabgori professional futbolchilari bilan FIFAning Futbolchilar maqomi va transferi bo'yicha Reglamenti qoidalariiga muvofiq milliy qonunchilik, FIFA, OFK, O'FA va O'zPFL normativ hujjatlariga zid bo'limgan shartlar asosida shartnomaga tuzishi kerak.

## **16. Yuridik hujjatlar**

Litsenziya talabgori quyidagi hujjatlarni taqdim etishi zarur:

- a. Litsenziya talabgorining amaldagi qonunchilik bo'yicha ro'yxatdan o'tgan ta'sis hujjati nusxasi (ustav);
- b. Litsenziya talabgorining yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi:
  - i. ro'yxatdan o'tgan nomi;
  - ii. ommabplashgan nomi;
  - iii. yuridik manzili;
  - iv. tashkiliy-huquqiy shakli;
  - v. vakolatli imzolovchilarning ro'yxati;
  - vi. imzo turi (masalan, yakka, jamoaviy).
- c. (tegishli hollarda) Litsenziya talabgori va a'zo yoki qatnashchi o'rtasida tuzilgan kelishuv bitmi.

## **Moliyaviy mezon**

## **17. Audit tekshiruvidan o'tkazilgan oxirgi yillik moliyaviy hisobotlar**

a. Litsenziya talabgorining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazat u milliy qonunchilikka muvofiq ravishda yillik moliyaviy hisobot tayyorlashi kerak. Ushbu hisobot mustaqil auditorlar tomonidan tekshirilgan bo'lishi lozim.

b. Audit tekshiruvidan o'tkazilgan moliyaviy hisobotlar muayyan yakuniy sanaga qadar Litsenziarga taqdim etilishi va undan quyidagilar o'rin olgan bo'lishi lozim:

- i. Buxgalteriya balansi;
- ii. Foyda va zararlar hisobi (Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot);
- iii. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot;
- iv. buxgalteriya hisobi yuritilishining qisqa tavsifi hamda boshqa qo'shimcha ma'lumotlar;
- v. moliyaviy boshqaruv tahlili.

c. Audit tekshiruvidan o'tkazilgan oxirgi yillik moliyaviy hisobotlar Litsenziya talabgori va Litsenziar o'rtasida sir saqlanishi hamda ular OFKning Klublarni litsenziyalash bo'yicha moliyaviy qo'llanmasida belgilangan buxgalteriya tamoyillariga va undagi minimum talablarga javob berishi zarur.

d. Audit tekshiruvidan o'tkazilgan oxirgi yillik moliyaviy hisobotlar OFKning Klublarni litsenziyalash bo'yicha moliyaviy qo'llanmasida belgilangan minimal talablarga va buxgalteriya hisobini yuritish tamoyillariga javob bermasa, Litsenziya talabgori qo'shimcha moliyaviy hisobotlarni tayyorlab, dastlab auditorga, auditor shu ish bo'yicha o'z xulosasini berganidan so'ng esa Litsenziarga taqdim etishi lozim.

## **18. Yillik byudjet**

a. Litsenziya talabgori mavsum boshlanishidan avval yillik byudjetni taqdim etishi kerak.

b. U quyidagilardan iborat bo'lishi zarur:

- i. kelayotgan moliyaviy yil uchun prognoz qilingan daromad;
- ii. kelgusi moliyaviy yilda prognoz qilinayotgan xarajatlar;
- iii. kelgusi moliyaviy yil uchun rejalashtirilgan barcha moliyaviy manbalar, shuningdek, ularning miqdori;
- iv. kelgusi moliyaviy yil uchun rejalashtirilgan xarajatlarning barcha manbalari va miqdori.

## **19. Futbol klublari, xodimlar, soliq organlari hamda boshqa tashkilotlar oldida muddati o'tgan qarzdorliklarning yo'qligi**

a. Litsenziya talabgori shartnomadagi mehnat va huquqiy majburiyatlar asosida o'zining hozirgi va sobiq xodimlari, shuningdek soliq va boshqa idorlar, qolaversa boshqa futbol klublari oldida muddati o'tgan qarzdorliklarning yo'q ekanini isbotlay olishi lozim.

### **19-bob. Yakuniy qoidalar**

#### **1. O'zPFLning Klublarni litsenziyalash bo'limi**

O'zPFLning Klublarni litsenziyalash bo'limi ushbu Reglamentga qo'shimcha ilovalarni ishlab chiqadi va Litsenziya talabgorlariga taqdim etadi.

#### **2. Reglamentdan istisno masalalarni ko'rib chiqish tartibi**

Ushbu Reglamentda ko'rsatilmagan masalalar Litsenziyalash qo'mitasi tasdig'idan o'tadi va so'ng qaror qabul qilinadi.